

XORAZM SHAROITIDA KUNGABOQAR O'SIMLIGI O'SISH VA RIVOJLANISHINING BIOMETRIK KO'RSATKICHLARI TAHLILI

Matnazarova Zilola Maxsudbek qizi

Urganch davlat universiteti magistranti

E-mail: matnazarova_Zilola82@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola Xorazm sharoitida kungaboqar o'simligi o'sishi va rivojlanishining biometrik ko'rsatkichlari tahlili haqida bo'lib, statistik ma'lumotlar va tahlil natijalari keltirilgan.

Kalit so'zlar: kungaboqar, savatcha, ildiz, barg, poya.

ANALYSIS OF BIOMETRIC INDICATORS OF GROWTH AND DEVELOPMENT OF SUNFLOWER IN KHOREZM

Matnazarova Zilola Maxsudbek qizi

Master of Urgench State University

ANNOTATION

This article is about the analysis of biometric indicators of growth and development of sunflower in Khorezm, statistical data and the results of the analysis.

Key words. sunflower, basket, root, leaf, stem.

Olimlar kungaboqarning vatani Meksika va Peru deb hisoblashgan, ammo hujjatlar asosida Shimoliy Amerika va Kanada deb topilgan. Shimoliy Amerikaning g'arbiy xududlarida yovvoyi holda o'sib turgan bir yillik kungaboqarni ko'rish

mumkin. Kungaboqar XVI asrda Amerikadan Yevropaga keltirilgan va qisqa muddatda Yevropa davlatlari bo‘yicha tez tarqalgan. Kungaboqar tavsifi ilk bor Lobel tomonidan yozilgan va uni «quyosh guli» deb nomlagan (1576 yil). Yevropada kungaboqar ilk bor manzarali ekin sifatida tarqalgan. Rossiya hududida kungaboqar XVIII asrda Pyotr I farmoyishi bilan ekila boshlangan. Rossiyada uzoq vaqt manzarali ekin sifatida tarqalgan. Rossianing Voronej guberniyasi Alekseyevka qishlog‘ida oddiy dehqon Bokarev tomonidan 1829 yili kungaboqardan moy olingan. Uzoq yillar davomida bu texnologiya takomillashtirilgan va moy ishlab chiqarish texnologiyasi yaratilib, ishlab chiqilgan moy eksport qilina boshlangan. 1865 yili Voronej guberniyasida birinchi moy ishlab chiqarish zavodi qurilgan. Kungaboqarning ekin maydoni ham kengaya boshlagan. Ammo ayrim yillarda kungaboqarning hosili mol va zarazixa kasalliklari tufayli keskin qisqarib ketgan. 1913 yili kuyaga va zarazixaga chidamli nav yaratildi va kungaboqarning ekin maydoni yana kengaytirilgan. Moyli kungaboqarning birinchi navlari 1912 – 1913 yillarda yaratilgan. Rossiyadan tashqari moyli ekin sifatida kungaboqar Yevropa davlatlarida ham ekiladi. Shuningdek, kungaboqar moyining iste’mol qilinishi bo‘yicha AQSh yetakchi davlatlardan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda asosiy va takroriy ekin sifatida moyli kungaboqar navlarini yetishtirish ko‘payib bormoqda.

Kungaboqar - Asteraceae oиласига, *Helianthus annus* L. түркуми ва турiga mansub, bir yillik, issiqsevar o‘simlik. *Helianthus annus* L. yig‘ma tur bo‘lib, 2 ta mustaqil turga bo‘linadi: 1) *Helianthus cultus* Wenzl – madaniy ekma. 2) *Helianthus ruderalis* Wenzl – yovvoyi turlariga bo‘linadi. Madaniy turi ekma va manzarali kenja turlarga bo‘linadi. Kungaboqar navlari urug‘ning kattaligiga, moyning miqdoriga va mag‘izining chiqishiga ko‘ra quyidagi 3 ta kenja turlarga bo‘linadi: Chaqiladigan qungaboqar-poyasi yo‘g‘on, balandligi 4 m. gacha, bargi va savati yirik, diametri 45 sm.gacha. Pistasi uzun (11-23 mm), eni (7,5-12 mm). Mag‘izi pistasining yarimini egallaydi. 1000 tasining vazni 100-170 g. bo‘ladi. Moyli kungaboqar – poya balandligi 1,5-2,5 m., shoxlanadi, savatlar soni ko‘p bo‘ladi. Savatning diametri 14-20 sm. Pista uzunligi 7-13 mm, eni 4-7 mm. Mag‘izi pistani butunlay egallaydi. Po‘chog‘i 40-43%

bo‘ladi. 1000 tasining vazni 35-80 g. Oraliq kungaboqar – bu yuqorida bayon etilgan kenja turlarning o‘rtasida oraliq o‘rinni egallaydi. Ba’zi belgilari bilan chaqiladigan turiga yaqinlashadi- balandligi, bargining va savatining yirikligi, shakli bo‘yicha. Ayrim belgilari bilan pistaning maydaligi, to‘liqligi bo‘yicha moyli kungaboqarga yaqinlashadi. Bu turi ishlab chiqarishda ekilmaydi.

Ildizi – murtak ildizidan rivojlangan o‘q ildizdir, tuproqqa 3-4 m kirib boradi va yon tomonga 120 sm gacha tarqalgan. Ildizi bir necha tartibda shoxlangan. Kungaboqar urug‘pallasini yer betiga chiqaradi, keyin chin barg rivojlanadi va poya o‘sadi.

Bargi – oddiy, bandli, poyada spiralъ shaklida joylashadi. Poyaning pastki qismidagi barglar qarama-qarshi joylashadi. Eng yirik barglar poyaning o‘rta qismida bo‘ladi. Shakli yuraksimon. Barglari yuqoriga qarab maydalashadi va eng yuqoridagi barglar gulto‘plamining asosini tashkil qiladi. Barglar soni navlarga qarab 14-50 ta bo‘ladi.

Poyasi – baqquvat, tik o‘sadi, pastki qismi yog‘ochlangan ichi parenxima to‘qimalari bilan to‘lgan. Uchi to‘pguli bilan tugallanadi. Asosiy poya va yon shoxlari qalin tuklar bilan qoplangan.

To‘pguli savati – bir nechta bargchadan iborat o‘ramaga o‘ralgan bo‘lib ikki xil gullarga ega - tilsimon va naychasimon. Tilsimon gullar savatning chetida bir yoki bir nechta qator bo‘lib joylashadi. Bu gullar sariq rangli, jinsiz. Naychasimon gullar ikki jinsli, uchi o‘tkirlashgan 2-4 ta pardasimon kosacha bargdan, och sariq rangli, qo‘shilib o‘sgan 5 ta gultoji bargdan, 5 ta changdondan va qo‘sh patsimon tumshuqchali tugunchadan iborat. Naychasimon gullar zich joylashgan, savatning kattaligiga qarab 600-1200 ta gul bo‘ladi. Gullari chetdan changlanadi. Savatning diametri 8-10 sm dan 50 sm.gacha bo‘ladi.

Mevasi – to‘rt qirrali pista, cho‘zinchoq, uchi o‘tkirlashgan, mag‘iz va pishiqlik po‘stidan iborat. Mag‘izi yupqa urug‘ po‘sti bilan qoplangan. Pistaning rangi oq, kul, qora rang, yo‘lyo‘l va yo‘lsiz bo‘lishi mumkin. Pistaning po‘sti o‘z vaznining 26-42 % ni tashkil etadi. 1000 tasining vazni 40-170 g.

Kungaboqar uchun maqbul iqlim sharoiti Kungaboqar rivojlanish davrida yuqori issiqlikdagi havo haroratiga, qurg‘oqchilikka juda chidamli o‘simplik hisoblanadi. Urug‘larining yaxshi unib chiqishi uchun 8-10°C li tuproq issiqligi kerak. O‘zbekiston tuproq-iqlim sharoitida kungaboqar ekinini bahorgi va yozgi mavsumda ekib yetishtirish mumkin. Ammo urug‘lar qiyg‘os unib chiqqan, yosh nihol davrida va kungaboqar ko‘chatlarining dastlabki o‘sish davrida salqin iqlim sharoitlari talab qilinadi. Kungaboqar nihollarida 4 tadan 8 tagacha barg hosil bo‘lguncha sovuqqa bir muncha bardosh bera oladi. Ammo kungaboqar ko‘chatlari qiyg‘os unib chiqib bo‘lgach, toki gullash va to‘liq pishib yetilish davrigacha bo‘lgan vaqtida issiq havo haroratiga juda talabi yuqori bo‘ladi. Gullash davrida yog‘ingarchilik va bulutli ob-havo bilan birga yuqori namlik holati kuzatilsa, urug‘lanishning pasayishi va buning oqibatida kam hosil shakllanishiga olib kelishi mumkin. Unib chiqishdan boshlab pistasi to‘la pishish davrigacha 2600 dan 2850°S gacha issiqlik talab qilinadi. Bu ko‘rsatkich nav va tuproq-iqlim sharoitiga qarab o‘zgarib turadi. Shimoliy xududlarga qarab o‘suv davri uzayadi. Kungaboqarning urug‘i +5 - +10°S da unib chiqadi, harorat +10 - +12°S bo‘lganda ancha tez unadi. Optimal harorat +18°S. Bundan yuqori haroratda unib chiqish jarayoni tezlashadi. Maysa – 6 °S sovuqqa bardoshlidir. Harorat yuqori bo‘lib suv yetishmasa hosil keskin kamayadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Atabayeva X.N., Xudayqulov J.B. “O‘simplikshunoslik”, “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, Toshkent-2018 yil. 407 bet.
2. Azizov T., Anorboyev I., To‘xtayeva S. Takroriy kungaboqar yetishtirish bo‘yicha tavsiyalar. <https://agro.uz/uz/services/recommendations/4613>.
3. Turkiya Respublikasi Oziq-ovqat qishloq xo‘jaligi vazirligi hamda “Denizbank” hamkorligida tayyorlangan “100 ta kitobdan” iborat to‘plami.